


IV
2023

ELECTRONIC EDUCATION

**SCIENTIFIC
JOURNAL**



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Ro'ziyev Raup Axmadovich
fizika-matematika fanlari nomzodi,
dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari

Mirsanov Uralboy Muxammadiyevich
pedagogika fanlari doktori DSc, dotsent

Editor-in-Chief

Ruziyev Raup Akhmadovich
Candidate of Physical and Mathematical Sciences,
Associate Professor

Deputy Editor-in-Chief

Mirsanov Uralboy Muxammadiyevich
doctor of Pedagogical Sciences DSc, Associate
Professor

TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Sobirov Baxodir Boypulatovich – NavDPI rektori,
texnika fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

Laqayev Saidaxmad Norjigitovich – akademik
(O'zbekiston)

Djurayev Risbay Xaydarovich – akademik
(O'zbekiston)

Shokin Yuriy Ivanovich – akademik (Rossiya)

Negmatov Sayibjon Sodiqovich – akademik
(O'zbekiston)

Aripov Mersaid Mirsiddikovich – fizika-matematika
fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

Turabdjano Sadritdin Maxamatdinovich – texnika
fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

Raximov Isomiddin Sattarovich – fizika-matematika
fanlari doktori, professor (Malayziya)

Shariy Sergey Petrovich – fizika-matematika fanlari
doktori, professor (Rossiya)

Qurbonov Shavkat Ergashovich – pedagogika
fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

Ajimuxammedov Iskandar Maratovich – texnika
fanlari doktori, professor (Rossiya)

Ibraimov Xolboy – pedagogika fanlari doktori,
professor (O'zbekiston)

Yunusova Dilfuza Isroilovna – pedagogika fanlari
doktori, professor (O'zbekiston)

Aloyev Raxmatillo Djurayevich – fizika-matematika
fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna – pedagogika
fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

Mo'minov Bahodir Boltayevich – texnika fanlari
doktori, professor (O'zbekiston)

Maxmudova Dilfuza Mileyevna – pedagogika
fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

Xudjayev Muxiddin Kushshayevich – texnika
fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)

Xolmurodov Abdulhamid Erkinovich – fizika-
matematika fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)

Lutfillayev Maxmud Xasanovich – pedagogika fanlari
doktori, dotsent (O'zbekiston)

Ergasheva Gulruxsor Surxonidinovna – pedagogika
fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)

Norov Abdusait Muradovich – texnika fanlari
bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Yuldoshev Ismoil Abriyevich – pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

Karaxonova Oysara Yuldoshevna – pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori, (O'zbekiston)

Kurbaniyazova Zamira Kalbaevna – pedagogika
fanlari doktori, (O'zbekiston)

Nasirova Shaira Narmuradovna – texnika fanlari
doktori, professor (O'zbekiston)

Nasridinov Ilxam Burxanidinovich – texnika fanlari
nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Xujjiyev Sodiq Oltiyevich – biologiya fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

Suvonov Olim Omonovich – texnika fanlari nomzodi,
dotsent (O'zbekiston)

O'tapov Toyir Usmonovich – pedagogika fanlari
nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Ibragimov Alimjon Artikbayevich – fizika-matematika
fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Yodgorov G'ayrat Ro'ziyevich – fizika-matematika
fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Xudoyorov Shuxrat Jumaqulovich – fizika-
matematika fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Baxodirova Umida Baxodirovna – pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

Shodiyev Ibrohim Majidovich – filologiya fanlari
bo'yicha PhD, dotsent (O'zbekiston)

Toxirov Feruz Jamoliddinovich – pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

Xamroyeva Dilafruz Namozovna – fizika-matematika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

Jo'rakulov Tolib Toxirovich – texnik muharrir

MUNDARIJA

Ergasheva G. S., Toshmanov N. J. <i>BIOLOGIYA MASHG‘ULOTLARIDA VIRTUAL LABORATORIYA DASTURLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI</i>	5
Ro‘ziyev R. A. <i>BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL ELEKTRON AXBOROT-TA‘LIM MUHITINING O‘RNI</i>	16
Sharifjanova G., Xasanov Sh. R. <i>RAQAMLI IQTISODIYOTDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI O‘QITISHNING XUSUSIYATLARI</i>	26
Норов А. М., Сафаров Л. С., Муродов Ш. А. <i>О СПОСОБАХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ CHATGPT В ОБУЧЕНИИ ПРОГРАММИРОВАНИЮ</i>	37
Xamroyeva D. N. <i>TARQATMA MATERIALLAR SHAKLIDAGI ELEKTRON O‘QUV KONTENTLARINI TARSIA DASTURIDAN FOYDALANIB YARATISH TEXNOLOGIYASI</i>	48
Qayumova D. N. <i>INKLYUZIV TA‘LIM MUHITIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI</i>	63
Ruziyeva D. R. <i>DASTURLASH TILLARINI O‘QITISHNING INNOVATSION SHAKLLARI VA USULLARINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI</i>	76
Yuldoshev I. A., Mirzayev S. S. <i>TARMOQ TEXNOLOGIYALARIDA BILAN AXBOROT ALMASHINUVNI TASHKIL ETISH MASALALARI</i>	84
Juraboyev A. J. <i>KOMPYUTER QURILMALARINI O‘RGATISHGA MO‘LJALLANGAN VIZUAL KO‘RGAZMALI QUROLLAR YARATISH USULLARI</i>	94
Ro‘ziyev R. A., Yandashova N. Y. <i>VIRTUAL TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINI YARATISHGA MO‘LJALLANGAN TA‘LIM PLATFORMALARINING IMKONIYATLARI</i>	101
Jumayeva D. N. <i>XORIJIY DAVLATLARNING KASB - HUNAR MAKTABLARIDA MUSTAQIL TA‘LIMNING HOLATI</i>	109

Mirsanov J. M.

*UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTAB O‘QUVCHILARINING DASTURLASHGA OID
ALGORITMIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA SEMANTIK YONDASHUVDAN
FOYDALANISH* 117

Husanova S. H.

*OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIGA DASTURLASH TILLARINI
O‘RGATISHDA HISOBLASH TAFAKKURI (COMPUTATIONAL THINKING)DAN
FOYDALANISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH* 126

Xodjabayev F. D.

DASTURLASH TILLARI FANIDAN ONLAYN VIKTORINALAR O‘TKAZISH USULLARI 136

Shodiyeva G. R.

*TALABALARNING TABIIY GEOGRAFIYAGA OID KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISHDA VEB-KVEST TEXNOLOGIYASINING AMALIY SAMARADORLIGI* 144

Ergasheva F. T.

*BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINING RAQAMLI
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA “DISKUSSIYA” INTERFAOL METODINI
QO‘LLASH* 154

© Mazkur jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi rayosatining 2022-yil 28-fevraldagi 312/6 qaroriga asosan Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

TALABALARNING TABIIY GEOGRAFIYAGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA VEB-KVEST TEKNOLOGIYASINING AMALIY SAMARADORLIGI

Shodiyeva Go‘zal Raxmatullayevna
Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida tabiiy geografiya fanini o‘qitishdagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish usullariga oid fikr mulohazar, taklif va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning tabiiy geografiya fanidan kompetensiyalarini rivojlantirishda veb-kvest ta’lim texnologiyasidan foydalanish bosqichlari ishlab chiqilgan va ushbu texnologiyaning samradorligini oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borilgan.

Tayanch so‘zlar: geografiya, zamonaviy ta’lim texnologiyasi, veb-kvest, global tarmoq, kompetensiya, tajriba-sinov, Student-Fisher.

Аннотация: В данной статье представлены мнения, предложения и рекомендации относительно существующих проблем преподавания естественной географии в высших учебных заведениях, методов использования современных образовательных технологий для их преодоления. Также в данной статье разработаны этапы использования образовательной технологии веб-квеста в развитии естественногеографической компетентности студентов вузов и проведена педагогическая экспериментальная работа, направленная на повышение эффективности данной технологии.

Ключевые слова: география, современные образовательные технологии, веб-квест, глобальная сеть, компетентность, экспериментальный тест, Студент-Фишер.

Abstract: V dannoy state predstavleny meniya, predlozheny i rekomendatsii otnositelno suschestvuyushchih problem of teaching aesthetic geography and higher education, methods of using modern educational technology for ix preodoleniya.

Also, in this state, the stage of development of the use of educational technology in the web quest and the development of the aesthetic and geographical competence of the students of the university and the pedagogical experimental work aimed at increasing the effectiveness of this technology.

Key words: *geography, modern educational technologies, web quest, global set, competence, experimental test, Student-Fisher.*

Kirish. Bugungi kunda talim jarayoni yangi bosqichlarga o'tayotganligi tufayli oliy ta'lim muassasalari talabalarining fanlardan, jumladan tabiiy geografiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirishni yangicha yondashuvlarini joriy etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda [1-3]. Talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirishni yangicha yondashuvlaridan biri, geografiya ta'limiga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, xususan veb-kvest ta'lim texnologiyasini faol joriy etishdir.

Veb-kvest ta'lim texnologiyasini tabiiy geografiyani o'qitishda qo'llash orqali bo'lajak geografiya mutaxassislarini motivatsiyasini oshirishga, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga, mustaqil qarorlar qabul qilishga hamda turli murakkab muammolarni mustaqil yechishga oid kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga erishish mumkin. Shuningdek, kompyuter texnologiyalari bilan ishlash malakalarini oshirishga va Internet texnologiyalari hamda undagi o'quv ma'lumotlarni qidirish madaniyatini shakllantiradi. Shu bois, veb-kvest ta'lim texnologiyasini oliy ta'lim muassasalarida geografiya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda qo'llash muhim masalalardan biri sanaladi.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida geografiya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti, geografiya fanini o'qitishda turli didaktik vositalardan foydalanish mexanizmlari, geografiyani o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalari, kompyuterning pedagogik dasturiy vositalari asosida o'qitish sifat va samaradorligini oshirish metodikasi hamda o'quvchi-talabalarning geografik ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga oid tadqiqotlar O.A.Mo'minov X.S.Matsaidova, R.T.Gaypova, A.T.Xayitov,

M.Abduraxmonov, N.A.Azimova, Q.H.Baxromov, M.Dadajonov, M.Jo‘raboyev, G.M.Tusupbekova, T.Yunusov, A.B.Jonzoqov, H.B.Nikadambayeva, F.A.Xamroyevalar tomonidan tadqiq etilgan.

Jumladan, O. A. Mo‘minov X.S.Matsaidova, R.T.Gaypova, A.T.Xayitov va M.Abduraxmonovlar maktab tabiiy geografik kurslarida geoekologik bilimlar tizimi va ta’limning metodik asoslari hamda tabiiy geografiya ta’limida didakdik o‘yinlardan, mahalliy ko‘rgazma vositalaridan foydalanish metodikasi va o‘quvchilarda tabiiy geografik matnlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlariga oid izlanishlar olib borganlar. N.A.Azimova geografiya fanini o‘rganish jarayonida talabalarning ijtimoiy-siyosiy tarbiyalash mexanizmlarini ishlab chiqqan. Q.H.Baxromov geografik obyekt, hodisa va jarayonlarni modullashtirish asosida ta’lim samaradorligini oshirish metodikasini ishlab chiqqan. M.Dadajonov 5-sinf o‘quvchilarida geografik kartani o‘rganish jarayonida fazoviy tasavvurlarini tarkib toptirish metodikasini ishlab chiqqan. M.Jo‘raboyev maktablarda geografiya o‘qitish jarayonida predmetlararo aloqaning amalga oshirish usullariga oid tadqiqot ishlarini olib borgan. G.M.Tusupbekova maktab geografiya kursida kartografik materiallarni o‘rganish masalarini o‘rgangan. T.Yunusov geografiya darslarida va darsdan tashqari vaqtlarda etnografik materiallarni o‘rganishda o‘quvchilarning kollektivizm ruhida tarbiyalash metodikasiga oid izlanishlar olib borgan. A.B.Jonzoqov umumiy o‘rta ta’lim maktablarida geografiyani axborot texnologiyalari vositalari yordamida o‘qitish metodikasini ishlab chiqqan. H.B.Nikadambayeva va F.A.Xamroyevalar oliy ta’lim muassalarida geografiyani elektron o‘quv-uslubiy majmualar va mediatexnologiyalari yordamida o‘qitish metodikasiga oid tadqiqot ishlarini olib borgan.

Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Mamlakatlarida geografiya turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish metodikasi, o‘quvchi-talabalarning geografiyaga oid kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish usullariga oid tadqiqotlar V.L.Pogodina, T.A.Kojevnikova, V.V.Nikolina, YE.A.Istomina,

N.O.Vereshagina, G.Y.Nechepurenko, YE.Y.Zabolotnova, M.G.Naderi, YE.V.Podvalnaya, R.YE.Torgashev, A.I.Sheynis, I.S.Musatayeva, O.P.Moskalenko, S.V.Bulanovlar, T.S.Komissarova, A.A.Volxonskaya, R.D.Kulibekova, Y.V.Mitrofanova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xususan, V.L.Pogodina va T.A.Kojevnikovalar bo‘lajak geografiya o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muammolari va yechimlariga oid izlanishlar olib borgan. V.V.Nikolina geografiyani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda tabiatga emotsional munosabatni shakllantirishning nazariy asoslarini o‘rgangan. YE.A.Istomina, N.O.Vereshagina, G. Y.Nechepurenkolar “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanidan talabalarning reflektiv faoliyati va iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda tabaqalashtirilgan yondashuv metodikasini ishlab chiqqan. YE.Y.Zabolotnova, M.G.Naderi, YE.V.Podvalnaya, R.YE.Torgashev, A.I.Sheynis, I.S.Musatayevalar geografiyani o‘qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan, masofaviy o‘qitish tizimlaridan va mediatexnologiyalardan foydalanish metodikasi hamda o‘quvchilarni bilimini baholashda kompyuterning amaliy dasturlaridan foydalanish usullariga oid tadqiqot ishlarini olib borgan. O.P.Moskalenko, S.V.Bulanovlar, T.S.Komissarovalar maktab geografiyasining kartografik bilim va malakalar tizimini takomillashtirish muammolari hamda geografiya o‘qituvchisini kartografik tayyorlashning nazariy asoslariga doir izlanishlar olib borgan. Y.V.Mitrofanova, A.A.Volxonskaya va R.D.Kulibekovalar bo‘lajak geografiya o‘qituvchisining axborot madaniyatini shakllantirish metodikasi va geografiyani o‘rganishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasini ishlab chiqqan.

Shu bilan birga mamlakatimiz va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligida fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda veb-kvest texnologisidan foydalanish nazariyasi va amaliyotiga oid izlanishlar Y.V.Risyukova, G.A.Orobyov, YE.M.Shulgina, YE.I.Baguzina, V.V.Suxova kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Jumladan, Y.V.Risyukova «Kasb ta’limi» yo‘nalishi talabalarida ilmiy-metodik veb-faoliyatni shakllantirish nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqot ishlarini olib borgan.

G.A.Orobyov oliy ta’lim muassasalari talabalarini ingliz tiliga oid ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini shakllantirishda veb-kvest texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirgan. YE.M.Shulgina va YE.I.Baguzinalar talabalarning xorijiy tillarga oid kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda veb-kvest texnologiyasi foydalanishga doir izlanishlar olib borgan. V.V.Suxova ta’lim jarayonini tashkil etishda veb-kvest texnologiyasidan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqqan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar uzluksiz ta’lim tizimida geografiya turkumiga kiruvchi fanlarni o’qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish metodikasi hamda talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo’lsa-da, ammo talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan, jumladan veb-kvest texnologiyasidan foydalanish mexanizmlari maxsus monografik tadqiq qilinmagan.

Shu bois ilgari surilayotgan tadqiqot, ya’ni talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda veb-kvest texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihtlarini to’lig’icha ilmiy asoslash geografiya ta’limida dolzarb muamolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta’lim muassasalarida geografiya ta’lim va tarbiya jarayonini samrali tashkil etishda hamda talabalarning geografiyaga oid ijodiy qobiliyatlarini oshirish, amaliy faoliyatda mavjud bilim va ko’nikmalarini shakllantirishda, kompetensilarini rivojlanirishda veb-kvest ta’lim texnologiyalari zamonaviy texnologiyasi bo’lib xizmat qiladi.

Veb-kvest ta’lim texnologiyasining tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, ushbu texnologiya birinchi marta 1995 yilda San-Diego universiteti (AQSH) ta’lim texnologiyalari professori Berni Dодj tomonidan taklif qilingan. Olim ta’limning turli bosqichlarida fanlarni o’qitishda o’quv jarayoniga integratsiya qilish uchun innovatsion internet ilovalarini ishlab chiqdi. Buni muammoli vazifani o’z ichiga

olgan va global tarmoqda ma’lumotni mustaqil qidirishni o‘z ichiga olgan veb-sayt deb atadi [4].

Veb-kvest ta’lim texnologiyasi veb-qidiruv hisoblanib, qo‘yilgan ta’limiy muammolarni global tarmoqdan foydalanish orqali yechishga qaratilgan rol o‘yindir [5-7].

Bu borada T.Martning fikriga ko‘ra, veb-kvest – bu Internetdagi muhim manbalarga havolalar keltirish orqali talabalarning noaniq yechim bilan muammoni o‘rganish uchun undashga yo‘naltiradigan ta’lim texnologiyasidir [8]. I.N.Sokolning fikriga ko‘ra, kvest bir necha kishidan iborat jamoa uchun qiziqarli jonli o‘yindir [9]. T.O.Lechkinaning fikriga ko‘ra, kvest texnologiyasi ta’lim oluvchi uchun alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, shaxsiy javobgarlikni, shaxslararo munosabatlar va bag‘rikenglik madaniyatini, o‘ziga bo‘lgan intilishni shakllantiradi hamda o‘z-o‘zini tarbiyalashda samarali hisoblanadi [10]. E.V.Safonovanning fikriga ko‘ra, veb-kvest texnologiyasi fanga oid muammoli qidiruv faoliyatni va rol o‘yini orqali ta’lim vazifalarini amalga oshirishni ta’minlaydi [11].

Ta’lim veb-kvesti – bu ta’lim va ko‘ngilochar dasturlarning mutlaqo yangi shakli bo‘lib, uning yordamida fangan oid yangiliklarni global tarmoqdan foydalanish orqali xabardor bo‘lish, ijobiy his-tuyg‘ularga ega bo‘lishlari va faoliyatda faol ishtirok etishlari mumkin [12]. Bu nafaqat har bir ishtirokchiga o‘z bilim va qobiliyatlarini namoyish etishga imkon beradi, balki ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa munosabatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi, bu ularning o‘zaro muloqot ta’sirini faollashtiradi [13]. Shu bilan birga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi [12-14]:

- 1) tarbiyaviy - talabalarni faol bilim jarayoniga jalb qiladi;
- 2) rivojlantirish - o‘rganishga qiziqishni va o‘z qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- 3) tarbiyaviy - jamoaviy ruhni va yakuniy natija uchun shaxsiy javobgarlikni o‘z zimmasiga olish madaniyati rivojlantiradi.

Shunday qilib, ta’lim kvesti – bu rol o‘yin elementlari bilan muammoli vazifalar to‘plamini o‘z ichiga olgan pedagogik texnologiya bo‘lib, ushbu

texnologiyani qo‘llash uchun Internet resurslari va boshqa manbalardan foydalanish talab qilinadi [8-10].

Veb-kvest ta’lim texnologiyasining yuqoridagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda oliy ta’lim muassasalarida geografiya turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishda hamda talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirish qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida tabiiy geografiya fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning kompetetsiyalarini rivojlantirishda veb-kvest texnologiyasini qo‘llash lozim. Buning uchun quyidagi bosqichlarga amal qilish maqsadga muvofiq sanaladi:

Birinchi bosqich. Ushbu bosqich kirish qismi bo‘lib, unda qoidalar belgilanadi, veb-kvest texnologiyasi yordamida taklif qilingan syujeti tasvirlanadi va rollar taqsimlanadi, maqsad qo‘yiladi, topshiriqlarni bajarish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Ikkinchi bosqich. Mazkur bosqich rolli o‘yin faoliyati hisoblanadi: syujet bo‘yicha har qanday rol doirasidagi umumiy natija uchun jamoadagi har bir ishtirokchining individual ishi, ishtirokchilar tanlangan rollarga muvofiq vazifalarni bajaradilar.

Uchinchi bosqich. Mazkur bosqichda talabalar tabiiy geografiyaga oid qo‘yilgan muammoni yechimlarini taklif etadi.

To‘rtinchi bosqich. Ushbu bosqichda professor-o‘qituvchi talabalar tomonidan taklif etilgan muammoni yechimlarini tahlil qilib baholaydi.

Ushbu taklif etilayotgan bosqichlarda tabiiy geografiya fanidan auditoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda va talabalarning mustaqil ta’limida foydalanish samarali hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda veb-kvest ta’lim texnologiyasining samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Samarqand davlat universitetida o‘tkazildi. Ushbu ta’lim muassasalarida geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalari tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba

va nazorat sinflari uchun jami 125 nafar geografiya ta’lim yo’nalishi talabalari jalb etildi. Tajriba guruhiga ajratilgan talabalarga tabiiy geografiya fanini o’qitishda veb-kvest ta’lim texnologiyasidan foydalanib mashg’ulotlar tashkil etildi. Nazorat guruhiga esa ushbu imkoniyat berilmadi. Mazkur tajriba-sinovga jalb etilgan talabalarning natijalari tahlil etilib, ishonchliligini tekshirish maqsadida Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlili qilindi. Mazkur kriteriyadan

foydalanishda tanlanmalar uchun mos o’rta qiymat $\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i X_i$, tarqoqlik

koeffitsiyentlarini $D_n = \sum_{i=1}^4 \frac{n_i (x_i - \bar{X})^2}{n-1}$ o’zlashtirish ko’rsatkichlarini aniqlashda esa A

$\% = \frac{\bar{X}}{3} \cdot 100\% - \frac{\bar{Y}}{3} \cdot 100\%$ formulalardan foydalanildi. Hisoblash natijasiga ko’ra, tajriba guruhining o’rtacha o’zlashtirish ko’rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi, ya’ni 7,6 % ga oshganligi ma’lum bo’ldi.

Xulosa va takliflar. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarining tabiiy geografiya faniga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda veb-kvest ta’lim texnologiyasidan foydalanish samarali ekanligi isbotlandi.

Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida tabiiy geografiya fanidan ma’ruza, amaliy mashg’ulotlarni olib borishda va talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda veb-kvest ta’lim texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Ushbu texnologiya yordamida tashkil etilgan mashg’ulotlar talabalarning fanga bo’lgan qiziqishini oshirishga, mustaqil qarorlar qabul qilishga, tabiiy geografiyaga oid qo’yilgan muammolarni mustaqil ravishda yechishga oid qobiliyatlarini va kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Adabiyotlar

1. Кожевникова Т.А. Формирование профессиональной компетентности будущего учителя географии в процессе подготовки и проведения педагогической практики // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Мурманск, 2006. – 25 с.

2. Митрофанова Ю.В. Формирование индивидуального опыта творческой деятельности учащихся средствами новых педагогических технологий при изучении географии своей местности // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Санкт-Петербург, 2005. – 18 с.

3. Торгашев Р.Е. Методика оценки качества географической подготовки студентов с использованием средств информационно-коммуникационных технологий // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2010. – 211 с.

4. Dodge B. Some thoughts about WebQuests / B. Dodge. – USA. – 1995. – 80 р.

5. Багузина Е.И. Веб-квест технология как дидактическое средство формирования иноязычной коммуникативной компетентности (на примере студентов неязыкового ВУЗа) // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2012. – 26 с.

6. Воробьёв Г.А. Веб-квесттехнологииивобучении социокультурной компетенции (английскийязык, лингвистическийвуз) // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Пятигорск, 2004. – 20 с.

7. Шульгина Е.М. Методика формирования иноязычной коммуникативной компетенции студентов посредством технологии веб-квест (профиль «Рекреационная география и туризм», английский язык) // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Тамбов, 2013. – 22 с.

8. March T. Why WebQuests? / T. March. – USA. – 1998. – 100 р.

9. Сокол И. Н. Использование квест-технологии для повышения ИКТ-грамотности педагогов / И. Н. Сокол // Научно-методический элек-тронный журнал «Концепт». 2013. – № 12. – С. 36-40. – ISBN 2304-12X.

10. Лечкина Т. О. Технология «квест-проект» как инновационная форма воспитания / Т. О. Лечкина // Наука и образование: новое время, 2015. – 1 (6). – С. 12-14.

11. Сафонова Е. В. Образовательный квест: смысл, содержание, технологические приемы / Е. В. Сафонова // Народное образование. – 2018. – № 1/2. – С. 83-87.

12. Митькин А. С. Квест как форма организации обобщающего урока / А. С. Митькин // Преподавание истории в школе. – 2014. – № 5. – С. 47-49.

13. Лечкина Т. О. Технология «квест-проект» как инновационная форма воспитания / Т. О. Лечкина // Наука и образование: новое время, 2015. – 1 (6). – С. 12-14.

14. Костенко Ю. К. Образовательный квест как технология продук-тивного сотрудничества обучающихся / Ю. К. Костенко // Среднее профес-сиональное образование. 2017. – №11. – С. 44-46.